

**BARKAMOL AVLOD TARBIYASIDA MUSIQA VA RAQS SAN'ATI
UYG'UNLIGINING AHAMIYATI****Zoir O'roqov**

Xalqaro Nordic universiteti

"Musika ta'limi va san'at" yo'nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19812341>**Annotatsiya:**

Ushbu tezisda barkamol avlodni voyaga yetkazishda musiqa va raqs san'ati uyg'unligining pedagogik hamda psixologik ahamiyati tahlil qilinadi. Musika va harakat birligi bolaning nafaqat jismoniy rivojlanishiga, balki uning estetik didi, hissiy olami va intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Shuningdek, san'atning ushbu ikki turi integratsiyasi orqali yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, musiqa, raqs, san'at uyg'unligi, estetik tarbiya, xoreografiya, ritmika, ma'naviy kamolot, pedagogik integratsiya.

Аннотация:

В данном тезисе анализируется педагогическое и психологическое значение гармонии музыки и танцевального искусства в воспитании гармонично развитого поколения. Обосновано, что единство музыки и движения способствует не только физическому развитию ребенка, но и формированию его эстетического вкуса, эмоционального мира и интеллектуального потенциала. Также освещаются вопросы формирования национальных и общечеловеческих ценностей у молодежи через интеграцию этих двух видов искусства.

Ключевые слова: гармоничное поколение, музыка, танец, гармония искусств, эстетическое воспитание, хореография, ритмика, духовное развитие, педагогическая интеграция.

Hozirgi kunda bolalarning xoreografiya san'ati jamiyatning ma'naviy madaniyatining muhim bo'lagi sifatid ko'z oldimizda gavdalanadi. Xoreografiya san'ati bevosita bolalarning shaxsiy ijodiy tajribasini, xalq ijodiyoti va professional san'atda asrlar davomida to'plagan boy, turfa va keng badiiy, estetik tajribasi bilan o'zaro muloqot qilish sohasiga aylanadi. Bu esa o'z navbatida bolalar raqs san'atining ahamiyati va mavqeini alohida belgilab, yoshlik chog'laridan bolalarni xoreografiya madaniyatiga jalb qilishni taqazo etadi.

Mustaqilligimizning birinchi kunlaridanoq yurtimizda yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib o'sishiga, uning ma'naviy va estetik tarbiyasiga hukumatimiz tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, 2000 yil – "Sog'lom avlod", 2001 – "Onalar va bolalar", 2008 – "Yoshlar", 2010 – "Barkamol

avlod" yili deb e'lon qilinib, bu borada turli yo'nalishdagi say-harakatlar amalga oshirildi. Buning samarasi o'laroq san'at sohasida ham tubdan yangi o'zgarishlar ro'y berdi. O'sib kelayotgan yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, madaniy qadriyatlarimizga jalb qilis niyatida respublikamizning turli vohalarida bolalar qo'shiq va raqs ansamblarining soni ortdi va kengaydi. Xususan, bolalar san'atini respublikamizda yanada takomillashtirishda musiqa va san'at maktablari, san'at kollejlari, "Madaniyat uylari" va "Yoshlar ijodiyot markaz"lari barpo etilib, faoliyat olib borgani bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Darhaqiqat, Ona diyorumizda bugungi kunda bolalarsiz hech bir muhim tadbir o'tmaydi. Respublikamiz miqyosida o'tkazilayotgan barcha ommaviy va milliy bayramlarda jajji kichkintoylarning chiqishlarini tomoshabinlar intizorlik bilan kutishadi. Chunki, ularning sahnadagi chiqishlari kelajak avlodning barkamolligi, o'sib kelayotgan yosh avlodlarning istiqboli dalolatidir. Ayni paytda, raqs san'ati bilan shug'ullanayotgan bolalarimiz misolida baquvvat, sog'lom va chiroyli, baxtli yoshlarni ko'rishimiz mumkin. Xususan, milliy folklor va zamonaviy raqslarga shijoat bilan ko'plab bolalar o'z qiziqishini namoyish etmoqda. Ularni kashf etishda yurtimizda olib borilayotgan tanlov-festivallar, jumladan "Yangi avlod", "Kelajak ovozi" Respublika festivali, "Milliy xalq raqslari"ning ahamiyati o'zgachadir. Yurtimizda tanilishga ulgurgan milliy folklor, zamonaviy raqs yo'nalishida – "Bulbulcha", "Tomosha", "Tantana" va boshqa bir qator bolalar ashula va raqs ansamblari hamda havaskorlik dastalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Zamonaviy bosqichda bolalar xoreografik ijodiyoti o'ziga xos belgilari va yangi omillarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Xususan, oxirgi yillarda bolalar repertuarini shakllantirishda keng doiradagi raqs uslublari, yo'nalishlari, raqsning turfa janr va shakllarining serqirraligiga murojaat qilishi va ular sintezi o'laroq yangi ko'rinishlarning yuzaga kelishi ko'zga tashlanadi. Barkamol va har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalash, ma'naviy rivojlantirish borasida davlatimiz miqyosida amalga oshirilayotgan ishlar xoreografiya san'ati sohasida xilma-xil raqs uslublari, yo'nalishlari va maktablarning shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Qolaversa, bolalar ijodiyoti dadil qadamlar bilan globalizatsiya jarayoniga kirib kelmoqda.

Tajribadan kelib chiqqan holda shuni ham qayd etish lozimki, har doim ham an'analar rivojini namoyon etuvchi yangi omillar to'g'ri tushunilmaydi, ba'zan hatto inkor etiladi. Bu esa, ko'p yillar mobaynida bolalar raqs san'atida to'plangan badiiy tajribani bilmaslikdan kelib chiqadi. O'z navbatida bunday oqibat an'anaviy raqslar tizimiga, jumladan o'zbek milliy raqslariga bo'lgan qiziqishning susayib

borishiga, xoreografik kompozitsiyalarda raqslarning timsoliy doirasi, mazmundorligining yo'qolishiga, bir xillikka olib kelmoqda. Ayniqsa, bunday belgilarni bolalarni o'ziga jalb qilayotgan zamonaviy raqs turlari – fristayl, xip-xop, breyk dans, djaz-raqs, modern-raqs, texno va shunga o'xshash yangi zamonaviy raqslar misolida ko'rishimiz mumkin.

Bolalar xoreografik ijodining tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish, an'ana va madaniy qadriyatlarini tadqiq etish bugungi davr talabiga mos bo'lib, hozirgi bolalar raqs san'atining istiqbolli rivojlanish tamoyillarini aniqlab, milliy o'zbekona an'analarga sodiqlik ruhida tarbiyalagan holda an'ana va zamonaviylik o'rtasida to'g'ri muvozanat o'rnatishga ko'maklashishi mumkin.

Bu borada Bolalar musiqa va san'at maktablari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu maktablardagi xoreografiya bo'limlarida raqs mashg'ulotlarini tashkil etish va uning faoliyatini takomillashtirish borasidagi dolzarb muammolar ilmiy jihatdan tadqiq etish mazkur magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu mavzuda yozilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va maqolalar deyarli mavjud emas.

